

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

7
2023



08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



7491
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 406 sahifa, 30-iyul, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'ZR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'ZR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'ZR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'ZR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'ZR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasida professori

Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'ZR Tabiat resurslari vazirligi,
O'ZR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli
qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Green Economy Transition Strategy for Uzbekistan	6
Raekwon Chung , Chairman, Supervisory Committee for New Climate Innovation Center at TSUE	
Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolikning dolzarb masalalari.....	8
Nodira Shotursunova , Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
"Yashil iqtisodiyot" dan "yashil taraqqiyot" sari.....	12
Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich , t.f.n., dotsent	
Tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan risklarni sug'urtalashning mohiyati va xususiyatlari.....	16
Egamov Zoxid Baxtiyarovich , bosh mutaxassisi	
Unleashing the Potential of Human Capital for Green Development: Bridging the Gap between Environmental Sustainability and Skill Development.....	26
Muratova Muzayana , Teacher	
Анализ состояния применения механизма инновационного управления инфраструктурами нефтегазовых предприятиях в условиях глобальной потепление земли.....	34
Кучаров Абдор Сабирижанович , профессор; Динара Нурмамад кизи Ишманова , доцент; Тю Константин Геннадьевич , соискатель	
Enhancing Methodology for Developing Professional and Communicative Skills of Future Economists in the Context of Teaching English and Green Economy	39
Nargiza Samandarova Muxammadovna , Teacher	
The Role of Higher Education in Shaping a Sustainable Green Economy.....	47
Ikromov Sayidolim , Teacher	
O'zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari.....	54
Rasulova Nigora Yusupovna , kafedra assistenti	
Qishloq hududlarini rivojlantirishda agroturizmning ahamiyati	58
Jontemirova Iroda Ikrom qizi , talaba	
Iqtisodiy rivojlanish yo'lida "Yashil iqtisodiyot" ning o'rni.....	61
Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna , talaba	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va yashil byudjetlashtirish tizimiga o'tishning ahamiyati.....	64
Raxmanov M. A. , tayanch doktorant	
Sustainable Globalization: Nurturing a Green Economy in Higher Education.....	68
Tukhtaeva Shakhnoza , Teacher	
Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni investitsiyalar yordamida oshirish xususiyatlari.....	75
Bauyetdinov Majit Janizagovich , kafedra dotsenti; Djumaniyazov Ubbiniyaz Ismayl uli , tayanch doktoranti	
Qishloq xo'jaligi nisbiy samaradorligini baholash.....	79
Berkinov Bozorboy , iqtisodiyot fanlari doktori, professor; Qulmatova Sayyora Safarovna , PhD; Ruxsatova Rushana O'ktamovna , erkin tadqiqotchisi	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari	86
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda eksportni kreditlash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari.....	97
G'aniyev Shaxriddin Abduvoxidovich , i. f. d., professor; Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , i. f. d. (PhD)	
Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellashtirish samaradorligini yanada oshirish usullari.....	102
Raxmanov Mexridin Sindarovich , kafedra dotsent v. b.	
Banklarda moliyaviy resurslarni boshqarishning ayrim rivojlangan mamlakatlar tajribasi.....	106
Ortiqov Uyg'un Davlatovich , kafedra dotsenti, i.f.n.	
Зарубежный опыт в области цифровизации цепочки поставок продуктов питания	115
Марданова Барно Асатуллоевна , докторант	
Environmental culture and building the ecosystem performance: An empirical analysis from Uzbekistan.....	119
Aziz Zikriyoev , PhD	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda innovatsiya va raqamlashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	129
Kambarova Sh. M. i.f.b.f.d. PhD	



Xalqaro dividend siyosati tajribalarida "S&P 500 dividend aristocrats" amaliyoti va uni milliy fond bozorida qo'llash imkoniyatlari.....	134
Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna , dotsent	
Yirik sanoat korxonalarida innovatsion menejmentni joriy etish asosida mehnat samaradorligini oshirish yo'llari	139
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich , i. f. b. f. d. (PhD), dotsent; Saotaliyeva Nozima Isomiddinovna , talaba	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	147
Norov Akbar Ruzimamatovich	
O'zbekistonda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlari tahlili	151
Egamberiyev Shuxrat Satimbayevich , i.f.f.d.(PhD)	
Aholining tadbirkorlik faolligini oshirishda oilaviy tadbirkorlikning roli	158
Xudayarova Maftuna Shavkatovna , tayanch doktorant	
Elektron tijoratni samarali tashkil etishda raqamli platformalarning yaratilish texnologiyasi	164
Karimova Shirin Zoxid qizi , tayanch doktorant	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish orqali aholi bandligini ta'minlash	168
Shakirova Nigora Axralovna , kafedra dotsenti v.b.	
Aglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanini harakatlantiruvchi omili sifatida	172
Raximbayev Akmal Azatboyevich , mustaqil tadqiqotchi	
Overview of Environmental Management in Uzbekistan: A Comparative Analysis of Protected Areas and Waste Management.....	177
Mamadjonova Sarvinov Sharifjonovna , PhD	
Obligatsiyalar bozorining paydo bo'lishi va uning iqtisodiyotga kapital jalb qilishdagi ahamiyati	182
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li , tayanch doktorant	
Iqtisodiy subyektlarga soliq yukini hisoblashning ahamiyati va zarurati.....	186
Abduturovov Jasurbek Nozimjonovich , mustaqil izlanuvchi	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	195
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Yangi O'zbekiston taraqqiyotida sug'urta munosabatlarini amalga oshirishning ahamiyati va zarurligi.....	199
Abdutarapova Dildora Farxodjon qizi , tayanch doktorant	
Assotsiativ qoidalar va bozor savatlarining tahlili	205
Sh. B. Rajabov; Sadinov Aziz Ziyadullayevich , 3 st year doctoral student	
Mamlakatda davlat soliq xizmati organlari soliq ma'muriyatchiligi faoliyati tahlili.....	210
Tashmuxeimedova Yayra , tadqiqotchi	
Exploring the Integration of Management and Marketing Strategies in Higher Education Institutions: Addressing Crucial Gaps for Enhanced Organizational Performance.....	213
Rakhimova Gulnoza , Teacher	
Особенности научной биографии художника Урала Тансыкбаева (на материале эпистолярного наследия).....	218
Искендир Аккуралай Абдиуалиевна , докторант	
Raqamli iqtisodiyot: milliy iqtisodiyot drayveri	222
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna , kafedra dotsenti; Berdiyeva Janonaxon Jahongir qizi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	228
Суюнова Фотима Баходир кизи , базовый докторант	
Таргетирование инфляции в Узбекистане: предпосылки применения и первые итоги	233
Рашидов Рахимжон Искандарович , в.и.о доцента; Якубова Шамшинур Шухратовна , к.э.н., доцент, докторант (DSc)	
O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta'minlashda sug'urtaning o'rni	240
Nomozova Qumri Isoyevna , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	
Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini takomillashtirishning xorijiy davlatlar tajribalari.....	248
Nazarov Qilich Xolmuradovich , kafedra assistenti	
Bank moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda huquqiy mexanizmlarning o'rni	255
Akbarov Behzodhon Ulug'bek o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarida muammoli aktivlarni boshqarishning dolzarb masalalari.....	262
Do'sanov Doniyor , magistr	



Tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar	269
N. N. Ro'ziyev	
Exploring the Potential of Islamic Finance in Uzbekistan.....	277
Sattorova Nasiba G'anijon qizi, Teacher	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining zamonaviy holati.....	284
Murodova Dilnoza Choriyevna, PhD	
Kredit mexanizmini metodologik asoslarini takomillashtirish	288
Gadoyev So'hrob Jumakulovich, mustaqil tadqiqotchi	
Korxonalarda raqamli marketing vositalaridan foydalanish xususiyatlari.....	295
M. A. Saparova, talaba	
Приоритетные направления модернизации системы подготовки туристских кадров.....	299
Очилова Хилола Фармоновна, к.э.н., доцент	
Improving the use of competitive strategies in the management of sewing and knitting enterprises during green development	304
Vafoyeva Dilafruz, Teacher	
O'zbekistonda savdo xizmatlari sohasining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari	311
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, katta o'qituvchisi, PhD	
O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilishning zamonaviy statistik usullaridagi tahlili	316
Kutbitdinova Muhayyoxon Inoyatovna, tayanch doktorant	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatida CRM strategiyalaridan foydalanish yo'llari	323
Xalilova Nafisa Komilovna, magistrant	
Ko'zi o'z shaxslarni ish bilan ta'minlashni qonunchilik vositasida tartibga solishdagi xorijiy tajriba	327
Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li, tayanch doktorant	
Оптимизации операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров.....	334
Джурбаев Отабек Джурбаевич, доцент кафедры	
Необходимость управления активами и пассивами современными банками Узбекистана.....	341
Фаттахова Муниса Абдухамитовна	
Transport logistika xizmatini eksportni takomillashtirishga ta'siri	349
Jumabayeva Akmole Sheraliyevich, magistrant	
Цифровая валюта: возможные последствия вывода из обращения наличных денег	354
Бахромов Мирзаахмад Рустам угли, студент; Абдикаримова Динара Рустамхановна, научный руководитель, д. э. н. (DSc)	
Systematic mapping study of higher education in green development context.....	361
Asqarova Feruza Abdullaevna, Senior Teacher	
O'zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirish imkoniyatlari	368
Vayskulov Ramazon Alisher o'g'li, kafedra o'qituvchisi; Shaymanova Nigora Yusupovna, tayanch doktoranti	
Особенности подготовки юных футболистов на этапах начальной подготовки, спортивно – оздоровительном и групп начальной специализации.....	373
Д. К. Исмагилов, кандидат педагогических наук, доцент	
Optimizing Financial Resources Management in Treasury Systems for Sustainable Green Development.....	377
Shodmonkulova Shahlo, PhD student	
Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslarini takomillashtirishning xorij davlatlar tajribasi	384
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Bank tizimida resurs bazasini mustahkamlash yo'llari.....	390
Voxidov Oybek Rozikovich, mustaqil tadqiqotchisi	
Integrating Career-Oriented Communication Competences in English Language Teaching for Future Specialists in Higher Education Institutions: A Catalyst for Green Economy	398
Rajapov Sulaymon Nuraddin Ugli, Teacher	
Tijorat banklari faoliyatida raqamli texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash istiqbollari	406
Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna, mustaqil izlanuvchi (PhD)	



TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISH XUSUSIDAGI ILMIY-NAZARIY QARASHLAR

N. N. Ro'ziyev

O'zbekiston Respublikasi

Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki bo'lim boshlig'i



Annotatsiya: Maqolada banklar faoliyatini transformatsiya qilishda raqamlashtirning metodologik asoslari, mazkur yo'nalishda tadqiqot o'tkazgan va ilmiy yangilik qilgan olimlarning qarashlari, shuningdek, tijorat banklarida an'anaviy xizmat ko'rsatish usulidan raqamli xizmat ko'rsatishga o'tishning ahamiyati va istiqbollari xorijiy mamlakatlarning tajribasi asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: bank, raqamlashtirish, transformatsiya, ekotizim, raqamli bank, "mijozga yo'naltirilganlik" yondashuvi, IT, innovatsion texnologiyalari.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ НА ВНЕДРЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ

Аннотация: В статье анализируются методологические основы цифровизации при трансформации банковской деятельности, взгляды ученых, которые проводили исследования и вносили научную новизну в этом направлении, а также важность и перспективы перехода от традиционного метода обслуживания в коммерческих банках к цифровому сервису на основе опыта зарубежных стран.

Ключевые слова: банк, цифровизация, трансформация, экосистема, цифровой банк, IT, инновационные технологии, клиентоориентированность.

SCIENTIFIC-THEORETICAL VIEWS ON THE INTRODUCTION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN COMMERCIAL BANKS

Abstract: The article analyzes the methodological foundations of digitization in the transformation of banking activities, the views of scientists who conducted research and made scientific innovations in this direction, as well as the importance and prospects for the transition from the traditional method of service in commercial banks to digital service based on the experience of foreign countries.

Key words: banking, digitization, transformation, ecosystem, digital bank, IT, innovational technologies, client-oriented.

KIRISH

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichi nafaqat ichki texnologik modernizatsiya, balki jahon iqtisodiyotining muhim chaqiriqlariga moslashish zarurati bilan ham tavsiflanadi. Shu bilan birga, bank sektorini raqamlashtirish bo'yicha qo'shimcha strategiya ishlab chiqish milliy iqtisodiyot oldida turgan asosiy vazifadir.

Dunyo iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida moliyaviy barqarorlik hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni kredit mablag'lari bilan bir maromda ta'minlab turish kelgusi yillarda bank tizimini rivojlantirishning asosiy funksional maqsadlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda rejalashtirilgan barcha islohotlar va milliy loyihalarning samaradorligi esa mahalliy bank faoliyati transformatsiyaga qanchalik tayyorligiga bog'liq.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kelgusi yillarda bank tizimini transformatsiya qilish, banklardagi davlat ulushini bosqichma-bosqich qisqartirib borish bo'yicha qator huquqiy hujjatlar imzolandi.

Aholining barqaror o'sishi, umr ko'rish davomiyligi, real daromadlari, ijtimoiy ta'minot, kambag'allikni qisqartirish, uy-joy sharoitlarini yaxshilash, tashkilotlarning innovatsion faolligini oshirish, raqamli texnologiyalarni jadal joriy etish, mamlakat miqyosida iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, iqtisodiyotning yuqori samarali eksportga yo'naltirilgan asosiy tarmoqlarini yaratish – bugungi kunda davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Hozirgi vaqtda texnologik va ijtimoiy sohalarga yo'naltirilgan strategik maqsadlarni amalga oshirish ko'p jihatdan bank tizimining samarali ishlashi bilan bog'liq.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Raqamli industriyani rivojlantirish, xususan raqamli bank xizmatlarini kengaytirish va takomillashtirish bo'yicha xorijiy olimlardan A. Bastaria, A. Eliyanab, A. Syabarrudinc, Z. Ariefd, A. P. Emur, W. Wodo, P. Blaskiewicz, D. Stygar, N. Kuzmalar ^[1], mahalliy olimlardan N. X. Jumayev ^[2], N. Sharipova ^[3], N. R. Ikramova ^[4], A. Azlarova ^[5], A. Qosimov ^[6], Z. Mamadiyarovlar ^[7] ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan.

Bank faoliyatini raqamlashtirish orqali uning samaradorligini oshirish va raqamli infratuzilma rivojlanishining muhim jihatlari M. Abramova, O. Lavrushin, P. Rouz, A. Sarkisyans, J. Sinki, O. Semenyuta va V. Maznyak kabi xorijiy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Bank biznesida raqamli mahsulot qatorini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari A. Borisov, A. Gusev, G. Gospodarchuk, P. Druker, Y. Jukov, S. Zubkov, A. Ivanova va boshqalarning asarlarida yoritilgan. Ular bank mahsulotlari sifatini doimiy ravishda yaxshilash va rivojlantirib borish zarurligini ta'kidlaydilar.

Uzoq vaqt davomida iqtisodchilar tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish, bank mahsulotlari yaratish strategiyasi, mijozga yo'naltirilgan yondashuvni shakllantirishga alohida e'tibor berib kelmoqdalar, jumladan, V. Alexin, D. Artemenko, A. Arxipov, B. Ananich, Y. Babicheva, I. Balabanov, G. Beloglazova, M. Porter, L. Krolivetska, V. Usoskin, Y. Shirinskaya, Y. Korobov, G. Panova, Y. Rubin, O. Sviridov, M. Sigova, Dj. Soros, R. Shagunov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida ushbu masalalar o'z ifodasini topgan. Bundan tashqari, bank sohasida raqamlashtirish va mijozlarga xizmat ko'rsatishning innovatsion texnologiyalaridan foydalanish masalalari Avdeeva, S. Zinchenko, B. Nikoletti, F. Paech, N. Radkovskaya, O. Fomicheva va boshqa xorijiy olimlar shug'ullangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Dunyoning yetakchi mamlakatlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish nazariyasi va amaliyoti zamonaviy bank tizimining ishlashiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu biznes modelni o'zgartirish, daromad olish va qiymat yaratish maqsadida raqamli texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga oladi ^[8]. Bu fenomen dunyoning iqtisodiyoti eng rivojlangan birinchi besh mamlakati va rivojlanayotgan mamlakatlarga xos ekanligini turli olimlarning ko'plab tahliliy sharhlari va fundamental tadqiqotlari tasdiqlaydi. Xususan, S. Karbo-Valverde va K. Kan Amerika va Yevropa to'lov tizimlarining samaradorligini tahlil qilib, onlayn bank mahsulotlarining rolini yuqori baholaydi va ularga kriptovalyuta tomonidan hech qanday tahdid mavjud emasligini ta'kidlaydi ^[9].

A. Omarini, bank xizmatlarining raqamli transformatsiyasini hisobga olgan holda, O'rta yer dengizi mamlakatlarida yangi texnologik platformalarning o'ziga xos o'rni borligini e'tirof etadi ^[10]. T. Axisar va K. Tunay elektron bank xizmatlarining o'sib borayotgan samaradorligini ta'kidlaydi ^[11], F. Libana-Kabanilyas tomonidan Ispaniya o'tkazilgan tadqiqot mazkur segmentga biznes va odamlar tomonidan qiziqish tobora ortib borayotgan ko'rsatadi ^[12]. Bundan tashqari, elektron banking Osiyo ^[13], Afrika va yaqin Sharqda ^[14] shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Shuningdek, O'zbekistonda ham bank tizimini transformatsiya qilish, xususan, ular faoliyatini raqamlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.05.2020-yildagi PF-5992-sonli "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni yaqqol misol bo'la oladi ^[15].

N. P. Savina ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar kundan-kunga tarmoqli platformaga o'tib borayotganini ta'kidlaydi. Konseptual qarorlarni raqamli formatda bank sektoriga joriy etish – yuqori samaradorlikka ega sun'iy aql texnologiyalari va kiber xatarlarni oldini oluvchi texnologiyalarga sarmoya kiritish, raqamli bank mahsulotlarini joriy etish bo'yicha raqobat, shuningdek, ma'lumotlar bazasi, moliyaviy instrumentlar, boshqaruv mexanizmlarini o'z ichiga olgan moslashuvchan axborot-kommunikatsiya tizimlaridan foydalanish kabi muhim omillarga ega yangi biznes modelidir ^[16].

Hozirda "raqamlashtirish" atamasining bir nechta qo'shimcha ta'riflari qabul qilingan. Jumladan, Gartner konsalting kompaniyasi raqamlashtirish bu – mavjud biznes modellarini takomillashtirish ekanligini, raqamli texnologiyalar orqali qo'shimcha qiymat yaratish uchun yangi imkoniyatlarning paydo bo'lishini ta'kidlaydi. U bir nechta sohalarni qamrab oladi, jumladan: fikrlashdagi o'zgarishlar, boshqaruvdagi o'zgarishlar, texnologiyalarni qabul qilish, resurslarni raqamlashtirish va innovatsiyalarni o'zlashtirish ^[17].

K. Mettning so'zlariga ko'ra, raqamli transformatsiya murakkab jarayon bo'lib, unga qiymat yaratishdagi o'zgarishlar, tarkibiy o'zgarishlar, texnologik va moliyaviy imkoniyatlardan foydalanish kiradi va u hozirda banklar duch kelayotgan muammolarni hal qilish uchun qo'l keladi ^[18].

T. A. Vasilyeva o'zining ilmiy ishlarida ortiq banklar noyob (unikal) ma'lumotlarning yagona egasi emasligi, moliyaviy injiniring va moliyaviy instrumentlar rivojlanganligi tufayli endilikda bitimlar banklarning ishtirokisiz tuzilayotganligini isbotlab, bunga nobank moliya tashkilotlari ishtirokida tuzilayotgan bitimlarni misol tariqasida keltirib o'tadi ^[19]. M. Kovalev va G. Golovenchikning fikricha, raqamli bank bu – mobil va onlayn platformadan foydalangan holda moliyaviy xizmatlarni amalga oshiradigan moliya tashkiloti bo'lib, shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligi hamda xizmatlar sifati va tezligini oshiradi ^[20].



TADQIQOT METODIKASI

Mazkur tadqiqotda analitik taqqoslash, mantiqiy va taqqoslama tahlil, guruhlash va ekspert baholash usullaridan foydalanilgan. Shuningdek, mavzuga oid xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqot ishlari keng o'rganilgan va tahliliy xulosalar bayon etilgan. Raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy banklarning tajribalari o'rganilib, ulardan mamlakatimizda samarali foydalanish yo'llari ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy hamjamiyatda "raqamli inqilob" atamasi bilan tez-tez tilga olinadigan raqamli texnologiyalarning tezlik bilan tarqalishi iqtisodiy tuzilmani tubdan o'zgartirib, moliya bozorining ishlashi uchun yangi shart-sharoitlar yaratadi va an'anaviy biznes landshaftning o'zgarishiga ta'sir qiladi.

Ekspertlik so'rovlariga ko'ra, 64 mamlakat rahbarlarining 85 foizi yangi texnologiyalar kelgusi 5 yil ichida biznesni tubdan o'zgartirishiga ishonishadi.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, axborot texnologiyalaridan foydalanish iqtisodiyotning bank sektorida raqobatning kuchayishiga olib keladi, shuning uchun banklar raqamli asrda biznesni tashkil etishning yangi qonunlari va tamoyillariga ko'proq rioya qilishga majbur.

Iqtisodiyotdagi yangi hodisalar, uning axborot bilan ta'minlanganlik darajasi va raqamli texnologiyalardan foydalanish bank xizmatlari sohasiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamlashtirish sharoitida bank biznesini rivojlantirishning maqsadli strategiyasini tanlash va yangi ustuvor modellarni joriy qilishga talab ortib bormoqda. Ilg'or texnologiyalarni keng joriy qilish bank xarajatlarni qisqartirish va daromadlarni oshirishga olib kelibgina qolmay, mijozlarga bank xizmatlaridan avvalgidan ko'ra qulayroq sharoitlarda foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Shu bilan birga, masofaviy bank xizmatlariga talab kundan-kunga oshib bormoqda. O'zbekiston aholisining aksariyati mobil banking xizmatidan foydalanadi, ular smartfonlarni bank xizmatlarini foydalanish va bank operatsiyalari amalga oshirishning eng afzal vositasi deb hisoblaydi.

Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish sharoitida bank muassasalari duch kelayotgan xavflarning tabiati va ko'lamini sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Bularning barchasi nafaqat bank biznes modellari o'zgartirish kiritish zaruratini, balki tartibga soluvchilar uchun yangi muammolarning paydo bo'lishini ham anglatadi. Raqamlashtirish sur'atining tezlashishi regulyator tomonidan tegishli zaruriy choralar ko'rilishi kechikishiga va raqamlashtirish bilan bog'liq sharoitlarning to'liq hisobga olinmasligiga olib kelishi mumkin.

Shu munosabat bilan, raqamlashtirish sharoitida banklarni tartibga solishning yangi usullarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishning samarali mexanizmlarini yaratish kabi masalalar juda dolzarb hisoblanadi.

Bank faoliyati transformatsiyasiga texnologik, tashkiliy, bozor, ijtimoiy, siyosiy omillar ta'sir ko'rsatib, bularning ahamiyati rivojlanishning turli tarixiy bosqichlarida o'zgarib turadi. Zamonaviy sharoitda yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi va takomillashuvi, ayniqsa, ular ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikning yangi shakllari bilan birga bo'lsa, bank transformatsiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Kondratyevning oltinchi sikli jahon iqtisodiyotining davriy o'zgarishlarini ko'rsatib berishi bilan ahamiyatli bo'lib, uning davri 2018–2050 yillarga to'g'ri keladi. Unga ko'ra, NBIC texnologiyalari sifatida ma'lum bo'lgan nano-, bio-, info- va kognitiv texnologiyalar iqtisodiy va xizmat ko'rsatish jarayonlarining asosi sifatida qayd etiladi. AQSh, Yevropa Ittifoqi va Yaponiyada joylashgan tadqiqot markazlari ushbu texnologiyalarni yaratishda yetakchilik qilishi bashorat qilinadi.

Shuningdek, ushbu markazlarning hozirgi yetakchiligiga qaramay, NBIC texnologiyalar turli davlatlar va ularning milliy iqtisodiy tizimlari uchun boshlang'ich sharoitlarni tenglashtiradi.

Biroq, aynan shu imkoniyat ko'p jihatdan bank faoliyati samaradorligi va milliy iqtisodiyotning real sektorini kreditlash faoliyatiga bog'liq. Bank faoliyati va texnologik taraqqiyotning o'zaro bog'liqligi O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun bank faoliyatini transformatsiya qilish ham nazariy, ham amaliy jihatdan dolzarbdur.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi raqamli texnologiyalar yordamida mijozlarga zamonaviy bank mahsulotlar va xizmatlarini taqdim etish bo'yicha nazariy asoslar va amaliy tavsiyalar, taqdim etilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirish, mahalliy moliya bozori raqobatbardoshligini oshirish va banklar transformatsiyasini jadallashtirishga qaratilgan turli xil raqamli xizmatlar, vositalar va texnologiyalardan foydalanishga asoslangan bank ekotizimlari orqali ularni targ'ib qilish vositalaridan iborat.

Mahalliy va xorijiy olimlarning raqamli texnologiyalarni banklarda keng joriy qilish bo'yicha olib borgan tadqiqotlari moliyaviy innovatsiyalar va axborot-telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda raqamli bank mahsulotlarni va xizmatlari ko'lamini kengaytirish, shuningdek, mijozlarning bank mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish orqali raqobatbardoshlikni mustahkamlashini o'rganish imkonini berdi.

O'z navbatida, raqamli bank mahsuloti zamonaviy axborot texnologiyalari muhiti talablariga to'liq javob beradigan moliyaviy IT texnologiyalari va xizmatlaridan foydalangan holda mijozlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan yagona, tartibga solinadigan va standartlashtirilgan bank takliflari to'plamidir, ularning asosiylari:



- a) qulaylik va soddalik;
- b) mijozning texnologik talablariga muvofiqligi;
- d) ijtimoiy tarmoqlar bilan birlashtirilganlik (integratsiya).

Shunday qilib, raqamlashtirish deganda bu an'anaviy biznes jarayonlar modelini axborot texnologiyalarini qo'llagan holda o'zgartirish (klassik shartnomalardan tortib mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonlariga qadar), ya'ni texnologik jihatdan yangilash tushuniladi. Shuni ta'kidlash lozimki, endilikda zamonaviy iste'molchi an'anaviy bank mahsulotlarini qabul qilolmaydi, ammo unga raqamli mahsulot – 24/7 tartibda masofadan kirish va bank xizmati va mahsulotlaridan, shuningdek, bankning qo'llab-quvvatlash xizmatidan foydalana olish imkoniyati kerak.

Bank mahsulotlarini raqamli tarzda taqdim qilishda quyidagi maqsadlarni aniqlash tavsiya etiladi:

- mijozning ehtiyojlari (istaklari); mahsulot va xizmatdan muntazam foydalanish imkoniyati va tezligi ("shu yerda va hozir" tamoyili asosida, har qanday qurilma yoki aloqa kanalidan kirish imkoniyati);
- yirik hajmdagi ma'lumotlarni bir pasda tahlil qilish qobiliyati. Raqamli texnologiyalar va moliyaviy innovatsiyalardan foydalangan holda bank mahsulotlari/xizmatlari taklifini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:
- yangi platformalarni yaratish; inson omilini chetlashtirish;
- "bank va mijoz" interfeyslarini rivojlantirish;
- raqamli tizimni keng joriy etish bo'yicha mutaxassislarinig birgalikdagi haraqiti;
- muqobil savdo platforma (kanal)larini yaratish.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida XXI asrda moliya bozori ishtirokchilari faoliyatidagi yetakchi tendensiya bu – "mijozga yo'naltirilgan" yondashuv degan xulosaga kelindi. Mazkur yondashuv banklardan mijozlarning ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish, talab yuqori bo'lgan mahsulotlarni aniqlash va ularni takomillashtirish maqsadida bankka eng qisqa vaqt ichida daromadni maksimal darajada oshirish imkoniyatini beradigan raqamli biznes-modelni joriy qilish imkonini berdi.

Shu bilan birga, "mijozga yo'naltirilganlik" yondashuvini ichki va tashqi yondashuvlarga bo'lish mumkin. Ichki yondashuv mijoz va bank o'rtasida hamkorlik munosabatlarini shakllantirishda mijozlarning potensial ehtiyojlarini o'rganish asosida ularni qondirishning eng qulay va foydali usullari o'zida mujassamlashtirgan bank siyosati yaratishni anglatadi. Tashqi yondashuv esa yangi mijozlarni jalb qilish orqali bank daromadini oshirishga xizmat qiladigan yangi xizmatlar turlari va zamonaviy texnologiyalarni shakllantirishga zamin yaratadigan xodimlar va mijozlar o'rtasidagi korporativ aloqa sifatini anglatadi.

"Mijozga yo'naltirilgan" bank mahsulotiga taklifini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- iste'molchiga bank xizmatlarini to'g'ri va qulay shartlarda taqdim etish;
- ko'rsatilgan xizmatlarni to'liq qayd etib borish (fiksatsiya);
- mijozlarning ehtiyojlari to'g'risida to'liq ma'lumotning mavjudligi, iste'molchilarning maksimal qamrovi va uni to'liq qayd etib borish (fiksatsiya);
- mijozlar ma'lumotlarining to'liq xavfsizligi;
- mijozlarga to'g'ri va har tomonlama mukammal xizmat ko'rsatish, mijoz bilan ishlashda samaradorlikni doimiy ravishda oshirib borish;
- savdo jarayonini boshqarishni optimallashtirish;
- segmentlash ishlarni optimallashtirish;
- moslashuvchan marketing texnologiyalari;
- savdo tarixini shakllantirib borish;
- bank bilan bog'langan har bir mijoz haqidagi ma'lumotlarni maksimal darajada yig'ish.

Yana shuni ta'kidlab o'tish lozimki, raqamli banklarning o'rtasida o'zaro raqobat kuchaymoqda. Banklar mijozlarga taqdim etiladigan raqamli xizmatlar ro'yxati mijozlarga yakka tartibda yondashib, ularning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda shakllantirmoqdalar. Barcha banklarda mijozga joriy hisob holatini tekshirish, pul o'tkazmalarini amalga oshirish, to'lov uchun elektron hisob-fakturalarni olish (buyurtma qilish), bundan tashqari, murakkab tizimlar mijozlarga kredit olish uchun ariza berish, o'z hisoblari haqidagi ma'lumotlarni o'z kompyuterlariga yuklash, kompaniyalar yoki maqsadli fondlarning qimmatli qog'ozlari, chek daftarchalari va depozit kitoblarini ko'rish imkonini beradi ^[21].

Shuningdek, moliyaviy xizmatlar bozorida Microsoft, Sony, IBM, Yahoo va boshqalar kabi yirik kompaniyalar faoliyat yuritayotganini, ular ham bank sohasining rivojlanishiga xizmat qiluvchi raqamli texnologiyalardan faol foydalanayotganini hisobga olish kerak.

Aksariyat an'anaviy banklar o'z ma'lumotlaridan to'liq foydalanmaydilar, chunki ularning IT tizimlari raqamli texnologiyalardan faol foydalanishga tayyor emas, faqat raqamli banklar ularni o'z faoliyatida amalga oshirishga qodir. Banklarning asosiy e'tibori zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanish yordamida biznes samaradorligini optimallashtirish va takomillashtirishga qaratilgan.



Hozirgi vaqtda raqamli texnologiyalardan foydalanadigan, o'z mijozlariga turli xil xizmatlarni taqdim etadigan banklar muayyan muammolarga duch kelmoqdalar, masalan:

- ma'lumotlar bazasining yetishmasligi (mijozlarning ma'lumotlarini yaratish, saqlash va himoya qilish muammosi);
- mijozlar haqida shaxsiy ma'lumotlarning yetishmasligi (mijozning hatti-harakati, ehtiyojlari va afzalliklarini tushunmaslik);
- bank xizmatlarining cheklangan doirasi (bank mijozlari uchun moliyaviy konsalting xizmatlarini ishga tushirish imkoniyati) ^[22]. Mutaxassislar bank sektori raqamli transformatsiya jarayonini uchta asosiy yondashuvga bo'ladilar:

Birinchi yondashuv texnologiyalarni alohida loyiha sifatida joriy etishga asoslangan bo'lib, bu to'liq miqyosli raqamli transformatsiyani anglatmaydi, bundan dunyo banklarining 26 foizi ushbu yondashuvdan foydalanadilar. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya uzoq muddatli rejalashtirish va sinov loyihalarni amalga oshirish asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Ikkinchi yondashuv dastlab raqamli iqtisodiyot ehtiyojlarini qondirish maqsadida sho'ba kompaniya tashkil qilish orqali amalga oshiriladi. Bu raqamli transformatsiyaning eng mashhur usuli bo'lib, undan 42 foizi banklar foydalanadi. Ushbu yondashuvning asosiy afzalliklari quyidagilar: e'tiborni mijozlarning uzoq muddatli ehtiyojlariga yo'naltirish; turli soha mutaxassislari (axborot texnologiyalari, dasturiy ta'minot mutaxassislari, analitik va marketologlar)ni o'z ichiga olgan jamoalarni tashkilot ichida tuzish, ushbu jamoa yordamida yuqori moslashuvchanlik darajasiga erish, shuningdek, mavjudlariga zarar yetkazmasdan faoliyatning yangi yo'nalishlarini sinovdan o'tkazish.

Banklarning raqamli transformatsiyaga uchinchi yondashuv usuli raqamli texnologiyalarni tashkilot faoliyatining asosi sifatida belgilab olishga asoslangan. Ushbu usul boshqa yondashuvlar bilan birlashtirilishi mumkin, ammo bu yondashuv bankning barcha ichki va tashqi jarayonlarini transformatsiya qilish orqali raqamli strategiyani yanada to'liq formatda amalga oshirishni o'z ichiga olishi bilan ajralib turadi. Banklarning 32 foizi ushbu yondashuv yordamida raqamli transformatsiyani amalga oshirishmoqdalar.

Boshqa mamlakatlarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham bank sektorini, ayniqsa, davlat banklarini transformatsiya qilish jarayoni davom etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.05.2020-yildagi PF-5992-sonli "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" Farmoniga asosan bank-moliya tizimini rivojlantirishning to'rtta ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi:

Boshqa mamlakatlarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham bank sektorini, ayniqsa, davlat banklarini transformatsiya qilish jarayoni davom etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.05.2020-yildagi PF-5992-sonli "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" Farmoniga asosan bank-moliya tizimini rivojlantirishning to'rtta ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi:

- sektorni qayta qurish – banklarni o'zgartirish va xususiyashtirish;
- bank nazorati bo'yicha Bazellik standartlarini, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini va boshqalarni joriy etgan holda qonunchilik bazasini takomillashtirish;
- mijozlarga yo'naltirilgan xizmatlar, kreditlash mexanizmlari va biznes jarayonlarini avtomatlashtirish orqali xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va kengaytirish;
- kadrlar malakasini oshirish.

Bundan tashqari, strategiyada 2025-yilga borib quyidagi maqsadlarga erishish ko'zda tutilgan:

- bank tizimi aktivlarining jami hajmida davlat ulushi bo'lmagan banklar aktivlari hissasini joriy 15 foizdan 2025-yilga kelib 60 foizgacha oshirish;
- banklar majburiyatlarining umumiy hajmida xususiy sektor oldidagi majburiyatlar hissasini joriy 28 foizdan 2025-yil yakuniga 70 foizgacha oshirish;
- 2025-yilga kelib davlat ulushi mavjud kamida uchta bank kapitaliga zarur tajriba, bilim va nufuzga ega kamida uchta strategik xorijiy investorlarni jalb qilish;
- umumiy kreditlash hajmida nobank kredit tashkilotlari ulushini joriy 0,35 foizdan 2025-yilga kelib 4 foizgacha oshirish.

Strategiya Jahon banki ekspertlari yordamida Moliya vazirligi va Markaziy bank mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan. Bunda xalqaro amaliyot va yondashuvlar, jumladan, MDH va Sharqiy Yevropa tajribasi hisobga olingan.

XULOSA VA TAKLIFLAR


Bank faoliyatini raqamli transformatsiya qilishning uch bosqichdan iborat tuzilishi ishlab chiqildi:

Bank faoliyatini raqamlashtirish o'z ichiga oladi (1-rasm):

- birinchi bosqich davomida o'zaro mijozlar va hamkorlar bilan o'zaro aloqa kanallari, raqamli mahsulot va xizmatlar ishlab chiqiladi;



- texnologik infratuzilmani moslashtirish amalga oshiriladigan ikkinchi bosqich;
- uchinchi bosqich bankdagi uzoq muddatli o'zgarishlarni nazarda tutib, bu raqamli muhitda strategik joylashuvga erishish imkonini beradi.



1-rasm: Bankni raqamlashtirish jarayoni:

Birinchi bosqichda moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talab va taklifning o'zgarishiga qarab, mijozlar bilan o'zaro aloqalarning raqamli kanallarini joriy qilish, shuningdek, bankni yangi raqobat muhitida samarali faoliyat yuritishiga imkon beradigan moliyaviy mahsulotlarni yaratishdan iborat. So'nggi yillarda onlayn bank platformalarini modernizatsiya qilish bilan bir qatorda banklarning sa'y-harakatlari mobil qurilmalar orqali mijozlar bilan o'zaro aloqalarning yangi kanallarini rivojlantirishga qaratildi.

Ushbu bosqichda yangi mahsulotlar va o'zaro aloqaning raqamli kanallarini ishlab chiqish mavjud texnologik infratuzilmani ilgari ishlanmalar bilan birlashtirishni taqozo qiladi.

Banklarni raqamlashtirish jarayonining ikkinchi bosqichi texnologik platformani o'zgartirish, ya'ni uni ilg'or texnologiyalarni qo'llash imkonini beradigan modulli va moslashuvchan infratuzilmaga aylantirishni, shuningdek, yangi mahsulotlar yaratish jarayonini jadallashtirishni o'z ichiga oladi.

Biometrik identifikatsiyani joriy etish, elektron hujjat aylanishiga o'tish, tranzaksiyalar xavfsizligi darajasini oshirish, banklarning masofaviy mahsulotlari va xizmatlaridan foydalanishni soddalashtirish va kengaytirish kabi texnologik jarayonlar faol foydalanilmoqda.

Raqamlashtirishning ikkinchi bosqichdagi yana bir o'ziga xos xususiyati banklarning biznes jarayonlarni avtomatlashtirishga bo'lgan istagi hisoblanadi, bunda asosiy e'tibor nafaqat bek ofisda ishlashga, balki avtomatlashtirilgan biznes jarayonlarni front-ofisda joriy qilishga ham qaratilgan. Masalan, banklar mijozning kreditga layoqatligini baholash va mijoz yo'naltirilgan, individual bank mahsulotlari va konsalting xizmatlarini ko'rsatish uchun sun'iy intellektga asoslangan murakkab analitik algoritmlardan foydalanadilar.

Raqamli transformatsiyaning uchinchi bosqichida banklar o'zlarining tarkibiy va operatsion modellarini soddalashtirishga qaratilgan keng ko'lamli tashkiliy o'zgarishlarni amalga oshiradilar va mijozga yo'naltirilgan strategiya ishlab chiqadilar. Tegishli o'zgarishlar butun tashkilotga, ya'ni filial tarmog'idan tortib bek ofisgacha o'z ta'sirini ko'rsatadi, ko'p hollarda ichki qarshilik obyektiga ham aylanadi, chunki bunday yangiliklarni joriy etish kredit tashkilotining tashkiliy madaniyatida tub o'zgarishlarga olib keladi.

Tadqiqot davomida raqamli transformatsiya sharoitida bank sektorining rivojlanish tendensiyalarini tasniflandi (1-jadval).

1-jadval

Tendensiya	Tavsifi
Integratsion tendensiyalar	
Moliyaviy bozorda yirik texnologiya kompaniyalarining paydo bo'lishi (Big tech)	Yirik texnologiya (AQShning Google, Apple, Facebook, Amazon va Microsoft, Xitoyning Alibaba, Tencent, Baidu, JD, i Xiaomi) kompaniyalari moliyaviy xizmatlarni taqdim etadi, shuningdek, kapitalning yuqori jamlanish ko'rsatkichi va raqamli texnologiyalar sohasidagi yetakchilik borasida an'anaviy banklar bilan raqobatlasha oladi.
Startaplar integratsiyasi	Startaplar bilan korporativ tezlatgich (akselerator)lar yoki kichik innovatsion kompaniyalarni sotib olish orqali o'zaro aloqa qilish
Tizimda yirik banklarning yetakchiligi (O'zbekistonda), banklarni birlashtirish (dunyoda)	So'nggi yillarda O'zbekiston banklar sonining o'sishi va yirik tizimli ahamiyatga ega banklar bozor ulushining o'sishi kuzatilmoqda. Banklar sonining kamayishi va yirik banklar nazorati ostida kapitalning jamlanishi tendensiyasi AQSh va Yevropa uchun ham xosdir.
Mobil-bank va internet-bank	
Tegishli xizmatlarni bankning mobil ilovasiga integratsiya qilish (ekotizimni rivojlantirish)	Smartfonlarning hisoblash quvvatining o'sishi va raqamli xizmatlarning rivojlanishi natijasida qo'shimcha bank mahsulotlari va boshqa xizmatlarni, shu jumladan, sheriklik xizmatlarini sotib olish bilan bog'liq turli funksiyalar banklarning mobil ilovalariga qo'shila boshlandi. Masalan, sug'urta, aviachiptalar, teatr yoki kino chiptalari, elektron kitoblar va boshqalarni sotib olish.



Brokerlik xizmatlari	Koronavirus oqibatida moliyaviy bozorlarda vujudga kelgan inqirozdan keyin aholining aksiya va obligatsiyaga kiritgan investitsiyalari salmog'i keskin o'sdi. Ko'pgina banklar brokerlik xizmatlari ko'rsatishga moslashgan mobil ilovalarini yaratdilar yoki takomillashtirdilar. Shu bilan birga, investitsiyalar uchun aholining savodxonlik darajasi pastligi sababli bir qator banklar o'z ilovalarida moliyaviy savodxonlik bo'yicha treninglar tashkil qildilar.
Bank xizmatlaridan foydalanishni soddalashtirish	Mobil ilovalar va internet-banking xizmati funksional imkoniyatlarining oshishi bilan banklar bir qator xizmatlarni onlayn tarzda taklif qilmoqdalar. Ular orasida kiberxavfsizlik tahdidlari tufayli ilgari onlayn tarzda taqdim etilmagan xizmatlar mavjud. Masalan, kartalarning PIN-kodini o'zgartirish, karta limitlarini o'zgartirish, ilovaga kirishni tiklash va onlayn kredit olish.
Xodimlar bilan ishlash	
Xodimlarni o'qitish	Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida, ularni joriy qilish va ulardan foydalanishga tayyor bo'lgan xodimlarga ehtiyoj paydo bo'ladi. Shu bilan birga, funksiyalari avtomatlashtirilishi yoki butunlay sun'iy intellekt bilan almashtirilishi mumkin bo'lgan ish o'rinlarini qisqartirish tendensiyasi mavjud. Banklar, imkoniyati mavjud vaziyatlarda, o'z xodimlarini qayta tayyorlash bilan shug'ullanadilar.
Yuqori malakali kadrlar taqchilligi	Yangi raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun mashina orqali o'rganish, ma'lumotlarni qayta ishlash va boshqa raqamli texnologiyalar sohasida yuqori malakali xodimlarga talab oshadi. Shu bilan birga, IT-mutaxassislar taqchilligi nafaqat bank sektori uchun, balki raqamli transformatsiya tashkilot samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin bo'lgan hamma sohalariga ham xosdir.
Autstaffing	IT-mutaxassislarining taqchilligi eng yirik banklarning autstaffing xizmatlardan foydalanishga olib keladi (tashqaridan qo'shimcha xodimlarni jalb qilish). O'zbekiston moliya bozorida banklar pudratchilar zanjiri orqali tashqi xizmatlarni buyurtma qilishadi, bu muqarrar ravishda bunday IT-mutaxassisi bir soatlik ish haqining oshishiga olib keladi.
Taklif etilayotgan bank mahsulotlarini takomillashtirish	
Mijozlarning ehtiyojlariga moslashish	Bu mobil ilovalar va sun'iy intellekt texnologiyalari rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Bu tranzaksiya xarajatlarni qisqartirish va mijozlar ehtiyojini qondirish darajasini oshirish imkonini beradi.
Mijozlar tomonidan sun'iy intellekt yordamida qarorlar qabul qilinishini qo'llab-quvvatlash	Mijoz uchun investitsiya portfelini tanlash yoki kelgusi davrlar uchun xarajatlarni bashorat qilish uchun sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish
Yangi onlayn autentifikatsiya texnologiyalari	Xavfsizlikni oshirish uchun biometrik autentifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, shuningdek boshqa saytlarga kirish uchun bankning ilovasi orqali autentifikatsiya qilish
Virtual va qo'shimcha reallikdan foydalanish (VR i AR)	Iqtisodiy harakatlarga taqlid qiladigan o'yin va ko'ngilochar dasturlar, kelajakdagi kvartirani, ko'rishga imkon beradigan VR-ipoteka xizmati, shuningdek, marketing aksiyalari
Chatbotlar va ovoqli yordamchilar	Operatorni kutish vaqtining qisqarishi yoki spam qo'ng'iroqlariga qarshi kurashish uchun ovoqli yordamchi
Biznes jarayonlarini optimallashtirish	
Xatarlarni baholash uchun sun'iy intellektdan foydalanish	Kredit yoki bank kafolati berishda xavflarni aniqroq baholash uchun sun'iy intellektdan foydalanish, shuningdek, mijoz hujjatlaridagi kamchiliklarni aniqlash
Xodimlarni masofadan turib ishlashga o'tkazish	Masofadan turib ishlash natijasida ofis-maydoni xarajatlarini qisqartirish va harakatchanlikni oshirish
Bank binolaridan uzoqlashish	Xizmatlarni onlayn tarziga o'tkazish hisobiga bank filiallari binolari va xodimlari uchun xarajatlarni qisqartirish
Kiberxavfsizlik	Mobil ilova yoki internet-banking orqali foydalanuvchini identifikatsiyalash natijasida yuzaga keladigan qo'shimcha xatarlarga javob sifatida kiber tahdidlardan himoya qilish xarajatlarining oshishi
Ro'yxatga olish texnologiyalari	Ma'lumotlar bazalarining barqarorligini oshirish va kiber tahdidlardan himoya qilish uchun blokcheyn texnologiyalarini joriy etish
Yirik ma'lumotlar texnologiyalari	Ma'lumotlarni tahlil qilish va modellarni yaratishning ilg'or usullaridan foydalanish, shuningdek hisoblash quvvatining o'sishi biznes jarayonlarining samaradorligini oshiradi.
Regulyator tomonidan o'rnatilgan talablarning o'zgarishini kuzatish texnologiyalari	Bir qator banklar jarimalar va regulyatorning boshqa sanksiyalari xavfini kamaytirish uchun xodimlarni regulyator talablarining o'zgarishi to'g'risida xabardor qilishga imkon beradigan tizimlarni joriy qilmoqdalar.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Wodo W., Blaskiewicz P., Stygar D., Kuzma N. (2021). Evaluating the security of electronic and mobile banking // Computer Fraud & Security. Volume 2021, Issue 10, Pages 8–14. [https://doi.org/10.1016/S1361-3723\(21\)00107-X](https://doi.org/10.1016/S1361-3723(21)00107-X);
2. Jumayev N. X. (2020). Raqamli iqtisodiyot va moliyaviy texnologiyalar: tijorat banklari uchun imkoniyat va tahdidlar // Moliya va bank ishi elektron ilmiy jurnali. VI son.-noyabr —dekabr;
3. Sharipova N. (2020). Tijorat banklari faoliyatining raqamli transformatsiya jarayoni va uning O'zbekistonda qo'llanilish istiqbollari // "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 3,-iyun;
4. Ikramova N. R. (2014). O'zbekistonda chakana bank xizmatlari: xorij tajribasi va rivojlanish istiqbollari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1,-yanvar-fevral;
5. Azlarova A. (2021). O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanishining bank moliya xizmatlari bozoriga ta'siri // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2,-mart-aprel;
6. Qosimov, A. (2021). Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi—to'rtinchi sanoat inqilobining asosi. Arxiv nauchnyx issledovaniy, 37(1);
7. Mamadiyarov Z. (2020). Raqamli iqtisodiyotda masofaviy bank xizmatlarining evolyutsion rivojlanishi: mulohazalar va tahlillar // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3,-may-iyun;
8. Development of banking technologies: opportunities and challenges 2017 (Moscow: Bank of Russia) 40–42;
9. Carbo-Valverde S., Kahn C. M. Payment Systems in the US and Europe: Efficiency, Soundness and Challenges // Financial Stability Journal (Bank of Spain), 2016. Vol. 30. P. 11–33;
10. Omarini A. International Journal of Finance, Economics and Trade 1–6;
11. Akhisar I., Tunay K. B. and Tunay N. Interaction Between Internet Banking and Bank Performance: The Case of Europe // Procedia-Social and Behavioral Sciences. Vol. 195. P. 369–375;
12. Liebana-Cabanillas F. Information Systems and e-Business Management 14 (1) 141–165;
13. Hossain M. Asian Business Review 3 (3) 53–61;
14. Al-Hawary S. I. S., Hussien A. J. A. The Impact of Electronic Banking Services on the Customers Loyalty of Commercial Banks in Jordan // International Journal of Academic Research in Accounting, Finance and Management Sciences. Vol. 7 (1). P. 50–63;
15. <https://lex.uz/docs/4811025>;
16. Development of banking technologies: opportunities and challenges 2017 (Moscow: Bank of Russia) 40–42. The Main Directions of development of Financial Technologies for the period 2018–2020 2018 (Moscow: Central Bank Russian Federation) 3–14;
17. Francis B., Hasan I., Küllü A. M., Mingming Z. Should banks diversify or focus? Know thyself: The role of abilities. Econ. Syst. 2018, 42, 106–118. – URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S093936251830027X?via%3Dihub>).
18. Matt C., Hess T., Benlian A. Digital Transformation Strategies. Bus. Inf. Syst. Eng. 2015, 57, 339–343. URL: <https://link.springer.com/article/10.1007/s12599-015-0401-5>);
19. Васильева, Т.А. Концепция банк. 3.0: Глобальные тенденции и последствия // Open Journal Systems. [Электронный ресурс]. – URL: <http://fkd.org.ua/article/view/107714/105099> (дата обращения: 17.03.2018). 10;
20. Ковалев М., Головенчик Г. (2018). Цифровая трансформация банков // Банковский вестник. №11 (664), 50–60 с.;
21. Масленников В.В., Новые технологии меняют наш мир // Вестник финансового университета. 2017. № 3(99). 6 – 11 с.;
22. Авдеева И.Л. Возможности цифровой экономики для развития банковского бизнеса в России журнал "Вестник общественных наук", 2017 – с. 1–13.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.